

O'ZBEK METAFORIK ATAMALARINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SINONIMIYA VA ANTONIMIYA HODISALARI

Suyarova Nargiza Yuldoshevna
PhD in Philology, Associate Professor
Karshi State University, Uzbekistan
suyarovanargiza345@gmail.com
Orcid ID: 0009-0000-5564-7133
Asliddinova Dilorom Ramiddin qizi,
2 nd-year Master's student
Turon University, Uzbekistan
asliddinovadilorom77@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi metaforik atamalarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan sinonimik va antonimik ekvivalentlarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida metaforaning ma'no qatlamlari, ularning konnotativ jihatlari hamda madaniy kontekstda o'zgarish darajasi yoritiladi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillaridagi metaforik birliklar o'rtasidagi ma'no farqlari misollar asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: metafora, tarjima, sinonimiya, antonimiya, semantika, ekvivalentlik, madaniy kontekst.

ОМОНИМИЯ И АНТОНИМИЯ В ПЕРЕВОДЕ УЗБЕКСКИХ МЕТАФОРИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация: В данной статье анализируются семантические особенности синонимических и антонимических эквивалентов, возникающих при переводе узбекских метафорических терминов на английский язык. В процессе перевода рассматриваются смысловые слои метафоры, её коннотативные аспекты, а также степень изменения в культурном контексте. Кроме того, на основе примеров анализируются различия в значении между метафорическими единицами узбекского и английского языков.

Ключевые слова: метафора, перевод, синонимия, антонимия, семантика, эквивалентность, культурный контекст.

SYNONYMY AND ANTONYMY IN THE TRANSLATION OF UZBEK METAPHORICAL TERMS INTO ENGLISH

Abstract: This article analyzes the semantic features of synonymous and antonymous equivalents that arise in the process of translating Uzbek metaphorical terms into English. The study examines the semantic layers of metaphors, their connotative aspects, and the degree of transformation within a cultural context. Furthermore, differences in meaning between metaphorical units in Uzbek and English are analyzed based on specific examples.

Keywords: metaphor, translation, synonymy, antonymy, semantics, equivalence, cultural context.

Kirish. Metafora tilda obrazlilikni ta'minlovchi eng muhim stilistik vositalardan biridir. U nafaqat badiiy matnda, balki kundalik nutqda ham keng qo'llaniladi.

Metafora tilshunoslik va tarjimashunoslikda muhim semantik hodisa sifatida qaraladi. U tilda obrazlilikni, mazmunning emotsional ifodasini ta'minlaydi hamda inson tafakkurining ko'zgusi sifatida xizmat qiladi. Tarjima jarayonida metaforik birliklarning ma'nosi, tuzilishi va ifoda uslubi ko'pincha o'zgarishga uchraydi. Bu esa sinonimik yoki antonimik shakllarning paydo bo'lishiga olib keladi. Tarjima jarayonida metaforik birliklar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmaydi, bu esa tarjimonni sinonimik yoki antonimik shakllardan foydalanishga majbur etadi. Shu bois metaforik atamalarning tarjimasida sinonimiya va antonimiya hodisalari semantik tahlil nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida bajarilgan ishlarni kuzatar ekanmiz, o'zbek an'anaviy tilshunosligida ham (M. Mirtojiyev, S. Usmonov, T. Aliqulov, Sh. Rahmatullayev, O. Azizov, Z. Tohirov kabi olimlar), zamonaviy tilshunosligida ham (G. Qobiljonova, D. Rustamova, Sh. Mahmaraimova, J. Jo'rayev, A. Xo'jamqulov) asosan metafora, uning turlari o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek an'anaviy tilshunosligida o'tgan asrning 50–70-yillarida shiddat bilan o'rganishga kirishilgan metafora talqinida 80-yillardan yangi asr ibtidosigacha «depsinish» sodir bo'ldi deyish mumkin. Tillarning tadqiqida yangicha yondashuvlar vujudga kelishi bilan metaforaga munosabatda ham uyg'onish sodir bo'ldi deb ayta olamiz. Masalan: «o'zbek tilshunosligida sistem-struktur yondashuv shakllanishi varivojlanishi bilan metafora tadqiqida tub burilish yasaldi. Xususan, tilshunos G. Qobiljonova metaforani o'rganish obyekti sifatida olib, uning sistem-struktur jihatlarini tadqiq predmeti sifatida tanladi».

An'anaviy yondashuvlarda metaforaning formal jihatlariga asosiy e'tibor qaratildi va u tildagi shunchaki ifodalashda tejamkorlik yoki lingvistik asimmetriya sifatida baholandi. Bu «o'xshashlik narsa-predmet va hodisalarning tashqi belgi yoki ichki xususiyatlari o'rtasida qisman yoki to'liq bo'lishi mumkin.

Albatta, struktur yondashuv formal yondashuvdan farqli o'laroq, hodisalarning botiniy va barqaror aloqalariga tayanadilar. G. Qobiljonova tadqiqotida ham shunday

holatni kuzatishimiz mumkin. Umuman olganda, tadqiqotchi metafora talqinida munosib yangi qadamni tashlaganligini e'tirof etish joiz.

O'zbek tilshunosligida metafora tadqiqining o'z an'anaviy doirasidan chiqib, struktur bosqichiga ko'tarilganligi o'zbek metaforologiyasi shakllanishi va rivojlanishi uchun yangi ufqlarni ochdi.

Jahonda metaforaga qiziqish insoniyat taraqqiyotida ilmga daxldor hodisalar paydo bo'lishi bilan bog'liq holda shakllana boshlagan. Bejiz bu masala buyuk mutafakkirlar Aristotel, J.J. Russo, V. Hegel va boshqalarning e'tiborini tortmagan. Bizga ma'lum, metafora bilan nafaqat olimlar, balki so'z bilan ish ko'ruvchi barcha soha vakillari qiziqishgan. U so'z san'atiga daxldor hamma uchun qimmatbaho til boyligi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi.

Dunyo tilshunosligida F. de Sossyur va B. de Kurtene ta'limotlari ommalashgandan so'ng lison va nutqni farqlash tamoyillari asosida metaforaning lisoniy strukturasi keng va atroflicha o'rganilgan.

Metafora – tilni boshqa kommunikativ vositalardan keskin farqlab turuvchi fikriy-mental vosita, tilning ijtimoiy-ruhiy hodisa ekanligini ko'rsatuvchi yorqin dalil. Bu mentallik yaqqol namoyon bo'lish, moddiy shaklda yuzaga chiqib turish xususiyati bilan o'zga mentalliklardan ajralib turadi. Metaforik tafakkurda so'zlovchi narsa va hodisalar orasidagi uyg'unliklarni ko'radi, shu asosda ulardagi o'zi va tinglovchi uchun muhim bo'lgan holatlarni ajratib oladi – yangi obraz yaratadi. Bu obrazda eskilardagi mutanosibliklar yangicha butunlikni hosil qiladi.

Metafora — tilning obrazlilik tizimini tashkil etuvchi eng muhim stilistik vositalardan biri hisoblanganligi uchun u orqali inson tafakkuri, milliy qadriyatlar, hissiyot va dunyoni idrok etish uslubi paydo bo'ladi. Har bir tilning metaforik tizimi o'sha xalqning dunyoqarashi, hayot tarzi va tarixiy-madaniy tajribasi bilan bevosita bog'liqligi sababli o'zbek va ingliz tillaridagi metaforik birliklar semantik jihatdan o'xshash bo'lishi mumkin, biroq ular ko'pincha ma'no va obraz jihatidan farq qiladi. [1]. Metaforalar faqat til hodisasi emas, balki xalqning mental olami, qadriyatlari va dunyoqarashining in'ikosidir. Shu bois, ularni tarjima qilishda so'zma-so'z yondashuv emas, balki semantik ekvivalentlik tamoyiliga amal qilish lozim.

Metaforalarni to'g'ri talqin etish nafaqat til o'rganuvchilarga, balki tarjimonlarga ham madaniyatlararo muloqotda muhim semantik nozikliklarni anglashga yordam beradi.

1. Tana a'zolari asosidagi metaforalar.

Har ikkala tilda ham tana a'zolari asosida yaratilgan metaforalar keng tarqalgan. Biroq ularning semantik ma'nosi ko'pincha turlicha bo'ladi.

O'zbekcha birlik	Inglizcha ekvivalenti	Ma'no farqi
Bag'ri tosh	Cold-hearted	Ma'nosi o'xshash, lekin o'zbekchada "muz" hissiy sovuqlik, befarqlikni kuchli his bilan ifodalaydi; inglizchada esa bu sifat barqaror metaforik shaklga ega.
Yuragi keng odam	Big-hearted person	Ikkalasi ham saxiylikni bildiradi, lekin o'zbekchada "yuragi keng" odatda olijanob, saxovatli kishiga nisbatan ishlatilsa, inglizchada "big-hearted" ko'proq rahmdil va g'amxo'r insonni anglatadi.
Ko'ngli sovib ketdi	Lost interest	Ingliz tilida bu ifoda faqat qiziqishning yo'qolishini bildiradi, o'zbek tilida esa hissiy ranjish, sovuqlik ma'nosi mavjud.
Qo'li uzun	Influential / powerful person	O'zbek tilida bu ifoda ba'zan salbiy (noqonuniy ishlar qiluvchi) ma'noda ham ishlatiladi, inglizchada esa neytral, ijobiy konnotatsiyaga ega.

Bu farqlar shuni ko'rsatadiki, bir xil konsept, ya'ni tana a'zosi, asosida yaratilgan metaforalar turli madaniyatlarda har xil ma'nosi bilan qo'llanadi.

2. Madaniyatga xos metaforalar.

Madaniy kontekstga ega metaforalar har bir tilda o'ziga xos ma'no qatlamlarini hosil qiladi.

O'zbekcha	Inglizcha ekvivalenti	Ma'no farqi
Boshing omon bo'lsin	Stay safe/ Take care	O'zbek tilida bu duoviy, samimiy ohangda aytiladi; ingliz tilida esa oddiy salomatlik tilagi sifatida ishlatiladi.
Qo'liga oy tushgan	Over the moon	Ikkalasi ham quvonchni bildiradi, lekin o'zbekchada “oy” obrazli, noyob baxtni, inglizchada esa “moon” metaforasi hayajonli xursandchilikni anglatadi.
Tiliga qiron kelsin	Bite your tongue	O'zbek tilida bu so'z yomon gapdan tiyilish uchun la'nat ohangida ishlatiladi, ingliz tilida esa “jim bo'l” ma'nosida neytral ibora sifatida qo'llanadi.

Bu misollar orqali milliy madaniyat va diniy-an'anaviy qadriyatlarning metaforik ifodalarda muhim rol o'ynashi aniqlanadi.

3. Hissiy holat va ruhiy kechinmalarni ifodalovchi metaforalar

O'zbekcha birlik	Inglizcha ekvivalent	Ma'no farqi
Ko'ngli gulladi	Lit up / Bloomed	O'zbekchada "gullash" ichki quvonch, ruhiy uyg'onish ramzi bo'lsa, inglizchada "lit up" tashqi ifoda (yuzida tabassum) orqali tasvirlanadi.
Qalbida quyosh porlaydi	A ray of sunshine	O'zbekchada bu ibora ichki ilqlik, iymoniy nur ramzi, inglizchada esa quvnoq, ijobiy insonni tasvirlaydi.

O'zbek va ingliz tillaridagi metaforik birliklar:

- Bir xil konseptni (masalan, "mehribonlik" yoki "xursandlik") ifodalasa ham, turli obrazlar orqali tasvirlanadi;
- Bu milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va dunyoqarashdagi farqlar bilan belgilanadi;

Tarjima jarayonida so'zma-so'z yondashuv emas, balki ma'no mosligi (semantic equivalence) muhim ahamiyatga ega.

Metaforaning tarjimada semantik o'zgarishlari

Metafora bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda, u nafaqat so'z darajasida, balki ma'no tizimi darajasida ham o'zgaradi. Masalan, o'zbek tilidagi "bag'ri tosh" iborasi ingliz tilida "hard-hearted" yoki "cold-hearted" tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda semantik asos saqlanadi, biroq metaforik tasvir vositasi o'zgaradi.[4]

Sinonimik ekvivalentlarning qo'llanilishi

Asosan, aksariyat hollarda, tarjimon bir metaforani to'liq aks ettiruvchi so'z topa olmaganda, unga yaqin ma'nodagi sinonimni tanlaydi. Masalan:

O'zbek tilidagi "oltin qo'l" iborasi ingliz tilida "skilful", "gifted", "talented" kabi sinonimik ekvivalentlar bilan ifodalanadi.

Bu holatda metaforaning obrazlilik darajasi kamayadi, ammo ma'no saqlanib qoladi..

Antonimik ekvivalentlarning paydo bo'lishi

Ba'zi holatlarda metaforaning to'g'ridan-to'g'ri tarjimasida semantik noaniqlikka olib keladi. Shunda antonimik ifodadan foydalanish zarur bo'ladi. Masalan: o'zbek tilidagi "ko'ngli ochiq" iborasi ingliz tilida "open-hearted" yoki "kind-hearted" shaklida tarjima qilinadi, ammo ba'zan kontekstga ko'ra "not selfish" yoki "unreserved" kabi antonimik shakllar qo'llanadi.

Bu jarayonda ma'no qarama-qarshiligi orqali metaforik obrazni to'g'ri yetkazish maqsad qilinadi.

Madaniy omilning roli

Metaforaning tarjimasida sinonimik va antonimik o'zgarishlarga madaniy tafovutlar ham sabab bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi "yuragi tog'dek" iborasi ingliz tilida "brave" yoki "strong-hearted" deb tarjima qilinadi. Ingliz tilida "mountain" obrazi yurak bilan bog'lanmaydi, shuning uchun metafora semantik jihatdan qayta quriladi.

Xulosa: Metaforadan, asosan nutqni go'zallashtirish uchun, tinglovchiga esa biror narsa yoki predmetni ochiqdan ochiq va emotsiyanal tarzda tushuntirib berish uchun foydalaniladi. O'zbek tilidagi metaforik atamalarni ingliz tiliga tarjima qilishda esa sinonimik va antonimik shaklining tanlanishi til va madaniyat tafovutlariga, shuningdek kontekstga bog'liq holda amalga oshiriladi. Sinonimik ekvivalentlar ma'no yaqinligini saqlashga, antonimiklar esa kontekstual ma'no aniqroq ifodalanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, metaforik birliklarni tarjima qilish jarayonida semantik tahlil va madaniy moslik tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Tinglovchiga aynan o'sha ma'noni ochib berish maqsadida ko'p hollarda metaforik atamalarning tillar aro sinonimlaridan hamda antonimlaridan keng foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 66-69.
2. Алиқулов Т. Полисемияларнинг ҳосил бўлиши ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1963. – № 6. – Б. 42.
3. Bozоров, U. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
4. Lakoff, G. & Johnson, M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
5. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.
6. Karimov, S. "Metaforik birliklarning tarjimasida leksik-semantik muammolar." Filologiya masalalari, 2021.
7. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол. фан. ... номз. дис. – Тошкент, 2000. – Б. 33.